



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> May, 2025

## **OILA TUSHUNCHASI UNING BUGUNGI O'ZBEKISTON YOSHLARI TOMONIDAN QABUL QILINISHI**

Nosirov Sabohiddin

Alfraganus universiteti Xalqaro munosabatlar yo'naliши 1-bosqich talabasi

Abdurahmonov Xolboy To'xtayevich  
Ilmiy rahbar

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada oila o'zi nima ekanligi unga diniy va dunyoviy qarashlar, O'zbekiston va Yevropa davlatlarining oila tizimlari o'rtasidagi farqlar va bugungi kundagi eng katta muammolardan biri bo'lgan ajrimlar va ularning kelib chiqish sabablari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** oila qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, bola huquqlari gender tengligi, Niso surasi, bir jinsli nikoh

### **Абстрактный**

В данной статье рассматривается, что такое семья, религиозные и светские взгляды на нее, различия между семейными системами Узбекистана и европейских стран, а также одна из самых больших проблем современности — разводы и причины их возникновения.

**Ключевые слова:** семейное право, Конституция Республики Узбекистан, права детей, гендерное равенство, Сура Нисо, однополые браки

### **Abstract**

This article discusses what a family is, religious and secular views on it, the differences between the family systems of Uzbekistan and European countries, and one of the biggest problems today is divorces and the reasons for their origin.



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> May, 2025

**Keywords:** family law, Constitution of the Republic of Uzbekistan, children's rights, gender equality, Surah Niso, same-sex marriage

## KIRISH

Oila serqirra va mazmuniga ko‘ra keng qamrovli institut hisoblanib, yosh avlod ta’lim-tarbiyasida, ularni sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol toptirish borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida muhim o‘rin tutadi. Shu bois, oila azaldan jamiyat ijtimoiy-ma’naviy, qolaversa iqtisodiy, ma’rifiy, ahloqiy, hattoki, siyosiy hayotida muhim ahamiyatga molik bo‘lgan muqaddas maskan sifatida e’tirof etiladi.

Jamiyatshunos olimlarimiz oilaga turlicha ta’rif berishadi. Oila — nikoh yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a’zolari ro‘zg‘orining birligi, o‘zaro yordami va ma’naviy mas’uliyati bilan bir-biriga bog‘langan. Oilada yashash baxt va saodatdir. Shu sababli ham o‘zbek jamiyatida oila muqaddas dargohligi bilan bog‘liq tushunchalar ko‘p tarqalgan. Inson zoti tug‘ilibdiki yashash uchun barcha zaruriyatlarni jumladan ,yurish-turish, gapirish, o‘qish-yozishdan tortib tabiat qonunlari bilan to`qnash kelganda nima qilish kerakligigacha oilada anglaydi va o‘rganadi. Oila jamiyatning o`zani u qanchalik mustahkam bo`lsa, jamiyat shunchalik qudratli bo`ladi.

## TAHLIL

Keling, endi Yevropadagi oilaviy inqiroz sabablarini ko‘rib chiqamiz. Bu statistikani birgina Germaniya davlati misolida ko‘rib chiqamiz.

Germaniyada ajrim darajasi oxirgi yillarda ko‘tarilgan. 2020-yilda, Germaniyada 120,000 dan ortiq ajrim ro‘yxatga olingan. Bu raqamlar o‘zgarib turadi, lekin, umuman olganda, Germaniya ajrim darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlar qatorida turadi. 2020-yilda ajrimlarning umumiyligi soni Germaniyada o‘rtacha 38% ni tashkil etdi (bu, nikohga kirgan har uchinchi juftlikning ajralishini anglatadi). Ajrimlarning eng yuqori darajasi shahar hududlarida, ayniqsa yirik shaharlarda (Berlin, Munich va boshqalar) kuzatiladi. Germaniyada ajrimning eng ko‘p uchraydigan sabablari orasida moliyaviy muammolar, ishsizlik, o‘zaro tushunmovchiliklar va hattoki bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq qarorlar mavjud.



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> May, 2025

Germaniyada ajrimlar haqida ba'zi so'nggi statistikalar (2020-2023 yillarda):

Ajrim darajasi: Germaniyada har yilda taxminan 30-40% nikohlar ajraladi

Yosh guruhlari: Germaniyada ajrimlarning eng ko'p uchraydigan yosh guruhi 40-49 yosh orasidagi juftliklardir. Ular ko'pincha uzoq muddatli nikohlardan keyin ajrashadilar.

Bolalar bilan ajrimlar: Germaniyada ajralgan juftliklarning ko'plari bolalar bilan birga yashashga davom etadilar. Odatda, bolalar ona bilan yashaydi, lekin ota-ona o'rtaсидаги bo'linishlar bolalar tarbiyasida noqulayliklarga olib keladi.

2019-yilda Germaniyada ajralishlarning soni 151,000 atrofida bo'lgan. 2020-yilga kelib, ajrimlarning umumiy soni kamaygan, biroq ajrim darajasi yirik shaharlarda yuqori bo'lgan.

Yevropadagi oila inqirozining yana bir sababi bu – erta turmushdir. Yevropadagi syrim davlatlardagi nikoh yoshlari:

Bolgariyada har ikki jins vakillariga ham – 18 yosh,

Angliyada – 16 yosh

Fransiya va Vengriyada erkaklar uchun – 18 yosh, ayollar uchun – 16 yoshdir.

Rossiya Federatsiyasida belgilangan nikoh yoshini (18)

Endi O'zbekistonda ajrimlarning sonini ko'rib chiqamiz.

Sudga ajrim uchun ariza topshirayotgan er-xotinning tanlagan qarori ularning o'ziga ham, jamiyatga ham, oiladagi farzandining taqdiriga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aslida oilaviy ajrimlar masalasi bugun yoki kechaning muammosi emas. Xo'sh, oilaviy ajrimlarning asosiy sababi nimada?

Bu mavzuni o'rganishimizdan maqsad - oilaviy ajrimlarga nima sabab bo'layotganligi va bu ajrimlarning oldini olish uchun nima ishlar qilish kerakligini, kelib chiqadigan sabablarni bartaraf etish yo'llarini o'rganishdir.

Mutaxassisning so'zlariga ko'ra, nikohlanuvchilarning aksariyati oila qurishga tayyor emas. Shu borada mavjud muammolarning oldini olish maqsadida barcha shahar va tumanlarda Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari faoliyati takomillashtirildi. 10 oy davomida 67 ming 237 nafar nikohlanuvchi shaxslar ushbu markazlarda o'qitildi.

Shuningdek, nikohdan ajralish sabablari o'rganilib, tahlil etilganda farzandsizlik 12,3 foiz, uchinchi shaxs aralashuvi 15 foiz, uzoq vaqt bir oila bo'lib yashamaganlik



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> May, 2025

12,2 foiz, moliyaviy va moddiy qiyinchiliklar 5,9 foiz, xiyonat 2,7 foiz, spirtli ichimlik va giyohvand moddalar iste'moli 2,6 foiz, ommaviy yoki xorijiy madaniyatning salbiy ta'siri 2,1 foiz, tazyiq va zo'ravonlik 1,5 foiz va boshqa sabablar 26,9 foizni tashkil etgan.

Oilalarda 1,9 foiz holatda chet elga chiqish maqsadida va 5 foiz holatda imtiyozli uy olish maqsadida ham ajrimlar amalga oshirilgan.

Endi viloyatlarda oila haqidagi qarashlarni ko'rib chiqamiz. 210 dan ortiq talabalar o'rtaida o'tkazilgan so'rovnomalarga ko'ra, har bir viloyatlarda oilaga bo'lган qarashlar turlicha ekanligini bilib oldik.

VILOYATLAR	Soni	Yoshi	Jinsi	FIKRLARI
Andijon	15	18-20	50% erkaklar 50% ayollar	Ayollar oilani tarbiya beshigi ekanligini, erkaklar esa oila mustahkam qo'rg'on ekanligini bildirishdi
Buxoro	15	18-22	40% ayollar 60% erkaklar	Ayollar oilani jamiyatning bir bo'g'ini ekanligini, erkaklar esa oila Vatan ichidagi vatan ekanligini bildirishdi
Farg'ona	15	18-20	40% erkaklar 60% ayollar	Ayollar oilani sirli makonga qiyoslashdi, erkaklar esa har bir erkak kishining oriyati ekanligini bildirdi
Samarqand	15	18-21	75% erkaklar 25% ayollar	Ayollar oilani xuddi uzum donalariga, erkaklar esa oilani kattagina bir bog'ga, oilaboshini esa bog'bonga qiyoslashdi.
Qashqadaryo	15	18-20	70% ayollar 30% erkaklar	Ayollar oilani xuddi shishaga o'xshatishdi. Agar oilaga shisha kabi darz ketsa, uni tiklash juda qiyin. Erkaklar esa oilani oilani bamisol dengizga o'xshatishdi. Dengizning qurishi esa oilaning barbod bo'lishidek gap.
Surxondaryo	15	18-19	35% erkaklar 65% ayollar	Ayollar oilani "maktab"ga erkaklar esa misoli bir davlatga o'shatishdi. Chunki har ikkalasi ham kerak paytda rag'batlantiradi, kerak paytda jazolaydi.



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> May, 2025

Namangan	15	18-20	55% ayollar 45% erkaklar	Ayollar fiikriga ko'ra oilani xuddi inson tanasiga o'xshatishdi. Agar insonni biror joyi og'rib qolsa, u insonning sog'lig'iga ta'sir ko'rsatadi. Erkaklar esa oilani "ruhiy quvvatlar manbayi" deya ta'rif berishdi.
Sirdaryo	15	18-19	40% ayollar 60% erkaklar	Ayollar oilani xuddi "mehr" bulog'iga o'xshatishsa, erkaklar esa, erkak kishini gapi o'tadigan oila haqiqiy oila deb hisoblashadi.
Jizzax	15	18-21	65% ayollar 35% erkaklar	Ayollar oilani xuddi maslahat kengashiga o'xshatsa, erkaklar "hikmatlar makoni"ga o'xshatishadi.
Navoiy	15	18-22	35% ayollar 65% erkaklar	Ayollar oilani xuddi atirgulga o'xshatishadi. Atirgulning har bir bargi bu oilaning har bir a'zosidir. Erkaklar esa oilani uyga o'xshatishadi. Agar uy qulab tushsa bu oila barbod bo'ldi degani.
Xorazm	15	18-23	85% erkaklar 15% ayollar	Ayollarning fikriga ko'ra oila bamisol marjon shodasidir. Har bir oila a'zosi xuddi marjon shodalari kabi "ko'rinnmas" ip bilan bog'langan. Bu ipning nomi - <b>MEHRDIR</b> . Erkaklar esa oilani anor mevasiga o'xshatishadi. Agar anor oila kabi bo'linib ketsa, donalari xuddi oila a'zolari kabi har tomonga sochilib ketishadi.
Toshkent. vil	15	18-19	55% ayollar 45% erkaklar	Ayollar oilani xuddi tarix kitobiga o'xshatishadi. Oila davrasida o'tgan har bir kunimiz tarixga aylanib boradi. Erkaklar esa oila deganda ota - ona balki do'stlar, kursdoshlar davrasini tushunishadi.



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> May, 2025

Qoraqalpog'iston.Respublikasi	15	18-22	60% qizlar 40% erkaklar	Ayollar oilani xuddi "magnit"ga o'xshatishadi. Inson oilasidan qancha masofa uzoqda bo'lmasin, qancha vaqt uzoqda bo'lmasin baribir o'z oilasini qumsaydi. Erkaklar esa oilani tiniq suvga o'xshatishadi. Suvga tushgan har bir dog' oilaga otilgan "toshdir"
Toshkent shahri	15	18-20	70% erkaklar 30% ayollar	Ayollarning fikriga ko'ra, oila insonga Alloh tomonidan berilgan bir "omonat"dir. Bu "omonat"ni qanchalik asrashi yoki unga xiyonat qilishi insonni o'ziga bog'liq. Erkaklar esa oilani yonayotgan olovga o'xshatishadi. Agar olovga o'tin(moddiy va ma'naviy ta'minot) tashlab turilmasa, olov so'nib qoladi.

Misol uchun poytaxtimiz **Toshkent shahridan** bo'lган talabalarning fikriga ko'ra, oila bu insonga beriladigan ruhiy kuchlar to'plamidir. Chunki bir ishni boshlaganimizda birinchi kuchni, birinchi maslahatni oiladan olamiz. Ular bizga ham moddiy ham ma'naviy yordam berishadi. Ular doimo yonimizda bo'lishadi. **Jizzaxlik** talabalarning fikriga ko'ra oila bu kichik vatan, kichik qo'rg'ondir. Oilamizni himoya qilishimiz Vatanni himoya qilishdek gapdir. **Surxondaryolik** talabalarning fikriga ko'ra oila bamisolai davlat. U kerak bo'lsa rag'batlantiradi, o'rni kelsa jazolaydi ham. **Toshkent viloyatidagi** talabalarning fikriga ko'ra ular oilani faqat ota – ona qurshovidagi oila emas, balki sinfdoshlar, do'stlar, kursdoshlar o'rtaсидаги munosabatlarni ham xuddi oila kabi ifodalashdilar. Chunki kursdshlar ichida o'zimiz qatori, bizdan katta yoki bizdan kichik bo'lган aka – ukalarimiz, opa – singillarimiz bo'lishi mumkin. **Andijonlik** talabalarning fikriga ko'ra, oila muqaddas dargohdir. Bu dargohda hammani hamjiatlikda yashashi, iladagi tinchlik oilaning jamiyatdagi o'rnini belgilab beradi. **Sirdaryolik** talabalarning fikriga ko'ra, agar oilada erkak kishini gapi ustun bo'lsa, oilada otaning o'rni yuqori bo'lsa, u haqiqiy oiladir. **Qashqadaryolik** talabalarning fikriga ko'ra, oila bu inson uchun eng qadrli insonlarning nikohidir. Oilaning ajralishi eng qadrli insonlarning biridan



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> May, 2025

ayrilish kabitidir. **Farg'onaliklar** talabalarning fikriga ko'ra, oila har bir insonning oridir. Agar bir insonni oilasiga yomon gap tegsa, uning oriyatiga tekkandek bo'ladi. **Namanganlik** talabalarning fikriga ko'ra, oila bu "sirlar makoni"dir. Chunki har bir oilani o'zining ichki muammolari, ichki sirlari mavjud. Bu sirlarni ochish esa oilaga xiyonatdir. **Samarqandlik** talabalarning fikriga ko'ra, oila tarbiya maskanidir. Chunki farzandning tarbiyasi uni oilasi qanaqa ekanligini bildiradi. **Buxorolik** talabalarning fikriga ko'ra, oila davlatning bir bo'lagidir. Agar davlatni uzumga o'xshatsak, oilalar esa uzum donalaridir. Agar bir oilaga darz ketsa bitta uzum donasi chiriydi yoki qurt yeydi. Bu esa mevaning yetilishiga ta'sir ko'rsatadi. **Navoiylik** talabalarning fikriga ko'ra, oila bu xuddi bir uy kabitidir. Oilaning barbod bo'lishi bu bitta uyning qulashidir. **Xorazmlik** talabalarning fikriga ko'ra, oila bamisol marjon shodasidir. Agar oilaga darz ketsa, oila har tomonga xuddi marjon shodalari kabi tarqalib, sochilib ketadi. **Qoraqalpog'istonlik** talabalarning fikriga ko'ra, oila bamisol tiniq suvdir. Suvga tushga har bir dog' oilaga otilayotgan "toshlar"dir.

Oilaviy ajrim ko'rsatkichlari Qoraqalpog'iston Respublikasi (-59), Samarqand (-285), Qashqadaryo (-68), Buxoro (-95), Toshkent (-198), Sirdaryo viloyatlarida (-134) kamaygan. O'tgan yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o'sish ko'rsatkichlari Farg'ona viloyatida 10,2 foizga yoki 456 ta (4 901), Andijon viloyatida 14,9 foizga yoki 612 ta (4 695), Xorazm viloyatida 7,4 foizga yoki 330 ta (2 030), Toshkent shahrida 5,2 foizga 255 ta (5 130) qayd etilgan.

2023 yil davomida 24 ming 193 nafar ajrim yoqasiga kelib qolgan oiladan 20 ming 265 nafari yarashtirilishiga erishilgan. "Nizoli oilalar bilan individual ishlash daftari" ishlab chiqilgan bo'lib, unda nizoli oilalarga individual yondashish yo'l-yo'riqlari belgilangan va bu daftarga nizoli oilalar kiritilib, tegishlicha mutaxassislar tomonidan yakka tartibda ish olib borilishi yo'lga qo'yilgan.

## AJRIMLARNING ASOSIY SABABLARI

### 1. Erta turmush

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nikoh yoshi har ikkala jins vakillari uchun 18yosh etib belgilangan. Ayrim hollarda urzli sabablarga ko'ra 1 yoshga qisqartirish mumkin. Bunda tuman hokimining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

### 2. Nikohlanuvchilarining oila qurishga tayyor emasligi



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> May, 2025

3. Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi quda-andachilik.

4. Ba'zi bir mentalitetimizga zid bo'lgan urf – odatlar.

Bu borada Qur'oni Karimda ham bir qancha oyat va suralar keltirib o'tilgan.

Misol uchun yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh haqida shunday deyilgan:

“ Sizlar uchun (bu gap erkaklarga aytilyapti) onalaringiz, qizlaringiz, opasingillaringiz, ammalariringiz, xolalariringiz, aka-ukalaringizning qizlari, opasingillaringizning qizlari, emizgan onalaringiz, emishgan opasingillaringiz, qaynonalaringiz, nikohingizda bo'lgan xotinlaringizning tarbiyangizda bo'lgan qizlari – mana shu sanab o'tilgan ayollarga uylanish harom qilindi. **Qur'oni karim, Niso surasi, 23-oyat**

Bu ajrimdan aziyat chekadigan inson o'rtadagi norasiyda farzand. Agar farzand ona bilan ketsa, otaning g'amxo'rligidan, ota bilan ketsa onaning mehridan mosovo bo'ladi. Ko'ngli yarim bo'lib qoladi. Bu holat bolaning huquqlarini cheklanishiga ham olib keladi. Chunky milliy qonunchiligidizda ham xalqaro huquqda ham har bir bola oilada g'amxo'rlik qilinishi huquqiga ega ekanligi belgilab o'tilgan.

2022-yilning yanvar-noyabr oylarida nikohdan ajrashgan oilalar soni **44 742** nafar qayd etilgan. Nikohdan ajrashgan oilalarda jami farzandlari soni **43 515** nafarni tashkil etgan.

Nikohdan ajrashgan oilalardagi farzandlar sonini respublika hududlari bo'yicha taqsimlanishi:

Qoraqalpog'iston R. – 2 343 ta

Andijon – 3 230 ta

Buxoro – 2 520 ta

Jizzax – 1 458 ta

Qashqadaryo – 3 321 ta

Navoiy – 1 302 ta

Namangan – 3 475 ta

Samarqand – 5 029 ta

Surxondaryo – 2 602 ta

Sirdaryo – 1 914 ta

Toshkent – 4 213 ta

Farg'ona – 4 394 ta



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> May, 2025

Xorazm – 2 067 ta

Toshkent sh. – 5 647 ta

Mamlakatimizni oila sohasi borasidagi eng muhim qilgan ishlaridan biri Konstitutsiyamizga oila bobini kiritilishidir. Ayrim huquqshunos professorlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, jahondagi ko'pgina davlatlarning Konstitutsiyalarida oila bobi yo'qligini aytib o'tishadi.

Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasining "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlangan XIV-bobi 76-moddasida ifodalanishicha: "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir" [1]. Ushbu norma mazmun-mohiyatidan anglashiladiki, oila instituti falsafiy-huquqiy, ijtimoiy-biologik va ma'naviy-ahloqiy kategoriyadir. Bu degani, xalqimizning oilaga taalluqli milliy an'ana va qadriyatlari hamda oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun davlat ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi. Oila bilan bog'liq qoidalarga qiyosiy-tahliliy nazar shundan dalolat beradiki, Yangi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi, Fuqarolik va Oila kodekslari, shuningdek boshqa tegishli normativ hujjatlarimizning xalqparvarligiga, ularning milliy qadriyatlarmiz va an'analarimiz bilan uyg'unligiga amin bo'lamiz.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oila muqaddas dargoh. Uni himoya qilishimiz, asrashimiz shart. Oila bu har bir insonning kichik vatani. Bir oilaning buzilishi bu bir Vatanning vayron bo'lishidir.

Oilaning buzilishiga eng katta sabab erta turmush bo'lib bormoqda. Alfraganus universitetida 200dan ortiq talabalar o'rtasida nikoh yoshi haqida so'rovnomada o'tkazildi. So'rovnomada qatnashgan talabalarning 55% yigitlar 45% qizlar tashkil etdi. Savol quyidagicha edi: "Siz necha yoshda turmushga chiqishni (uyylanishni) ideal deb hisoblaysiz?". Ushbu so'rovnomada quyidagi javoblarni oldik.

Qizlarni fikriga o'g'il bolalarni uylanish yoshi 26-28 yosh ideal yosh deb fikr bildirishdi. Chunki u yoshgacha o'g'il bolalar uylanish uchun uy -joy, o'zining ish joyiga umuman oila qurish uchun o'ziga kerakli ehtiyojlariga ega bo'lish uchun ayni vaqt hisoblanadi deb fikr bildirishdi. Qizlarni o'zi esa 24-26 yosh turmushga



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> May, 2025

chiqish uchun ideal yosh deb qarashdi. O'g'il bolalarni fikriga ko'ra, qizlarni turmushga chiqish yoshi 20-23 yosh deb fikr bildirishdi. Chunki bu yoshgacha oliy ta'limni bitirish yilini hisobga olgan holda fikr bildirishdi. O'g'il bolalarni o'zi esa uylanish yoshini 25-26 yosh ideal yosh deb fikr bildirishdi.

Endi Yevropa davlatlaridagi statistikani ko'rib chiqsak. Yevropadagi nikoh yoshiga bo'lган qarashlar O'zbekistonnikidan tubdan farq qiladi. Chunki yevropadagi oilaviy munosabatlar, ularning oila sohasidagi qonunchilik hujjatlarining ba'zi normalari bizni davlatimizdagi oilaviy munosabatlarga, oila sohasidagi qonunchilik normalariga zid keladi Yevropada nikoh yoshiga oid statistikalar so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatmoqda. Ko'plab mamlakatlarda nikohni kechiktirish tendensiyasi mavjud bo'lib, bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog'liq. Quyida ba'zi mamlakatlardagi nikoh yoshiga oid ma'lumotlar keltirilgan:

- **Ispaniya:** Ayollar uchun birinchi nikohning o'rtacha yoshi 32.3 yoshni tashkil etadi, erkaklar uchun esa 34.5 yosh. Bu, Ispaniyada nikohni kechiktirishning keng tarqalganligini ko'rsatadi.
- **Estoniya:** 1993 yilda nikohga kirganlarning 60-70 foizi 30 yoshgacha bo'lган bo'lsa, 2023 yilda bu ko'rsatkich erkaklar uchun 24 foiz, ayollar uchun esa 34 foizni tashkil etdi.
- **Vengriya:** 2023 yilda erkaklar uchun birinchi nikohning o'rtacha yoshi 33.5 yosh, ayollar uchun esa 30.9 yoshni tashkil etdi
- **Shvetsiya:** Ayollar uchun birinchi nikohning o'rtacha yoshi 34.8 yoshni tashkil etadi.

2023-yilda Germaniyada nikoh yoshining o'rtacha ko'rsatkichi sezilarli darajada oshgan. Ayollar uchun bu ko'rsatkich 32,8 yoshni, erkaklar uchun esa 35,3 yoshni tashkil etdi. Bu esa 1993-yildagi 26,8 yosh (ayollar) va 29,2 yosh (erkaklar) bilan solishtirganda ancha yuqori.

2023-yilda Germaniyada jami 361,000 nikoh ro'yxatga olingan bo'lib, bu 1950-yildan buyon eng past ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bu o'zgarishlar ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan bog'liq bo'lib, yoshlarning ta'lim olish, ish bilan bandlik va shaxsiy rivojlanishga e'tibor berishlari nikohni kechiktirishga olib kelmoqda.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Nega aynan Yevropada nikoh Yoshi bunday tarzda belgilangan? Bunga bir qator omillar sabab bo'ladi.



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> May, 2025

## ◆ **1. Ijtimoiy stereotiplar va madaniy an'analar**

- An'anaviy qarashlarga ko'ra, ko'plab jamiyatlarda **erkaklar "tayyor bo'lishi kerak"**, ya'ni moliyaviy barqarorlikka erishgach nikohga kirishadi.
- Ayollardan esa **yoshroq turmush qurish** kutilgan, chunki biologik imkoniyatlar (masalan, homiladorlik) yosh bilan bog'liq deb hisoblangan.

## ◆ **2. Biologik va reproduktiv omillar**

- Ayollar uchun biologik reproduktiv imkoniyatlar cheklangan deb qaraladi (garchi zamonaviy tibbiyot bu chegaralarni kengaytirgan bo'lsa-da).
- Shuning uchun ba'zi statistikalar ayollarni yoshroq nikohga kirishayotganini ko'rsatadi — yoki tarixan shunday bo'lgan.

## ◆ **3. Iqtisodiy omillar**

- Ko'plab erkaklar o'zlarini moliyaviy jihatdan tayyor his qilmaguncha nikohga shoshilmaydi. Bu esa ular uchun **nikoh yoshini oshiradi**.
- Ayollar esa (ayniqsa ilgari) ko'proq "turush qurish orqali" ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka erishishgan.

## ◆ **4. Tadqiqotlar uchun aniqlik kerak**

- Statistika organlari **genderlar orasidagi farqni ko'rsatish orqali** ijtimoiy tendensiyalarni aniqroq tushunishadi.
- Masalan: agar ayollar o'rtacha 32 yoshda turush qurayotgan bo'lsa, bu demografik siyosat, sog'liqni saqlash, bolalar bog'chalari, ish joylaridagi oila siyosati (masalan, ota-onalik ta'tili) kabi ko'plab sohalarga ta'sir qiladi.

## ◆ **5. Yangi tendensiyalarni aniqlash**

- So'nggi yillarda genderlar o'rtasidagi farq **kamayib bormoqda**, chunki erkaklar ham, ayollar ham avval ta'lif, ish va o'z-o'zini anglashni ustun qo'yishmoqda.
- Shuningdek, birga yashash (nikohsiz) holatlar ko'paygan – bu ham nikoh yoshi statistikalariga ta'sir qilmoqda.



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> May, 2025

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. OILA TUSHUNCHASI VA OILADAGI IJTIMOIY MUNOSABATLAR  
TIZIMi <https://zenodo.org/records/7239018/files/26.pdf?download=1>
2. Oila va nikoh tushunchalarining ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-huquqiy talqini  
[https://constitution.uz/oz/pages/oila\\_nikoh](https://constitution.uz/oz/pages/oila_nikoh)
3. Davlat va huquq asoslari 11-sinf darslik
4. Islomda oilaning o‘rni <https://muslim.uz/uz/e/post/35758-islomda-oilaning-o-rni>
5. Germaniyadagi ajrimlar soni [https://www.destatis.de/DE/Home/\\_inhalt.html](https://www.destatis.de/DE/Home/_inhalt.html)